



**MAXSUS MAKTAB INTERNATLARDA ISHLOVCHI PSIXOLOG
ISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**JO'RAYEVA XOLIDA YUSUFALI QIZI
XAYRULLOYEVA GULBAHOR ABDULLO QIZI**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Psixologiya ta'lim yo'nalishi 112-Ps-24 guruh talabalari

SHOMUROTOV ULUGBEK MELIKBOBOYEVICH

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti, Pedagogika va
psixologiya kafedrası o'qituvchisi (maqola ilmiy raxbari)

ulugbekshomurotov986@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-8004-499X>

ANOTATSIYA: Mazkur maqolada maxsus maktab-internatlarda faoliyat yurituvchi psixolog ishining o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan. Unda psixologning nogironligi bo'lgan bolalar bilan ishlash jarayonida qo'llaydigan individual va differensial yondashuvlari, psixodiagnostika va psixokorreksiya usullarining o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, psixologning pedagoglar, tarbiyachilar hamda ota-onalar bilan hamkorlikdagi faoliyati, emotsional barqarorlik va kasbiy kuyish sindromining oldini olish masalalari ko'rib chiqilgan. Maqola maxsus ta'lim tizimida psixologik xizmatni samarali tashkil etish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

KALIT SO'ZLAR: Maxsus maktab-internat, psixologik xizmat, bolalar reabilitatsiyasi, psixodiagnostika, psixokorreksiya, inklyuziv ta'lim, individual yondashuv, ota-ona bilan hamkorlik, emotsional barqarorlik.

АННОТАЦИЯ : В данной статье рассматриваются особенности деятельности психологов, работающих в специальных школах-интернатах. Анализируются индивидуальные и дифференцированные подходы в работе с детьми с ограниченными возможностями, а также специфика психодиагностики и психокоррекции. Кроме того, раскрывается взаимодействие психолога с педагогами, воспитателями и родителями, вопросы эмоциональной устойчивости и профилактики профессионального выгорания. В статье представлены научно-практические рекомендации по повышению эффективности психологической службы в системе специального образования.



КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: специальная школа-интернат, психологическая служба, реабилитация детей, психодиагностика, психокоррекция, инклюзивное образование, индивидуальный подход, сотрудничество с родителями, эмоциональная устойчивость.

ANNOTATION: This article explores the specific features of the work of psychologists employed in special boarding schools. It analyzes the individual and differentiated approaches used when working with children with disabilities, as well as the peculiarities of psychodiagnostics and psychocorrection processes. The article also examines the psychologist's collaboration with teachers, caregivers, and parents, along with issues of emotional stability and prevention of professional burnout. Practical recommendations are provided for improving the effectiveness of psychological services within the special education system.

KEYWORDS: special boarding school, psychological service, child rehabilitation, psychodiagnostics, psychocorrection, inclusive education, individual approach, parent collaboration, emotional stability.

Kirish: Maxsus maktab-internatlarda faoliyat yurituvchi psixolog odatiy ta'lim muassasalaridagi mutaxassislardan farqli ravishda murakkabroq vazifalarni bajaradi. Chunki bu muassasalarda tarbiyalanayotgan bolalar eshitish, ko'rish, nutq, intellektual yoki jismoniy nuqsonlarga ega bo'lishi mumkin. Shuning uchun psixolog ularga nisbatan oddiy psixokorreksiya usullarini emas, balki individual va differensial yondashuv asosida maxsus moslashtirilgan metodikalarni qo'llaydi. Psixologik faoliyatning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: psixodagnostika (bolalarning psixik rivojlanish darajasini aniqlash), psixokorreksiya (emosional va xulq-atvor buzilishlarini tuzatish), reabilitatsion dasturlarni tashkil etish, motivatsion qo'llab-quvvatlash, shuningdek ota-onalar va pedagogik jamoa bilan tizimli hamkorlik. Maxsus maktab psixologi faqat bolalar bilan ishlamaydi, balki o'qituvchi va tarbiyachilarning psixologik savodxonligini oshirish, stress va kasbiy kuyish sindromini oldini olish bo'yicha seminarlar o'tkazadi. Shu bilan birga, psixolog o'zida yuqori darajadagi sabr-toqat, empatiya, kuzatuvchanlik, ijobiy motivatsiya va emotsional barqarorlikni saqlab qolishi muhim hisoblanadi. Chunki ular har kuni ruhiy jihatdan sezgir va mehrga muhtoj bolalar bilan muloqotda bo'ladi. Mazkur kasb nafaqat professional ko'nikmalarni, balki insonparvarlik va mehribonlikni ham talab etadi.

Butun Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti statistikasiga ko'ra, butun dunyo bo'yicha bir milliardga yaqin odam turli darajadagi jismoniy, aqliy, emotsional, sensor, ruhiy buzilishlariga ega. Bu har yetti insondan biri yoki jami yer yuzi aholisining 15%

demakdir. Shular jumlasidan eng asosiysi bo'lgan animal bolalardan eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bo'lib. Bu anamalik holatlar tug'ma va ortirma nuqsonlari mavjud. Bu nuqsonlilikning ikki arajasi karlik va zaif eshituvchi nuqsonlilikka ajraladi. Shundan ko'rinib turibdiki ularning nuqsonlilik darajalarni bartaraf etish metodikalari ham turli hollarda bartaraf etiladi. Eshitishda kamchiligi bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish qonuniyatlarini o'rganish, eshitish idrokini rivojlantirish tizimini takomillashtirish, o'z bitiruvchilarini ma'lum bir kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat qilishlariga erishish, o'qitishning texnik vositalarini takomillashtirish, bog'cha va maktab talimining uzluksizligini ta'minlash, respublika bo'yicha sog'liqni saqlash hamda xalq ta'limi tarmoqlari ishlarini muvofiqlashtirish, erta tashxis diagnozi muammolarini hal etishdan iboratdir.

Eshitishda kamchiligi bo'lgan bolalar va kattalar uchun ta'lim muassasalari, boshqa maxsus maktablar kiradi. Uning bo'g'inlari birligi va vorisligi asosiga kiritilib, har bir bosqich o'z vazifalarini o'taydi va ayni paytda keyingisi bilan bog'liq. Barcha muassasalar faoliyati asosida yagona maqsad bolalar rivojlanishidagi buzilishlarning oldini olish va korreksiyalash, shaxsni har tomonlama shakllantirish va hayotga, mehnatga tayyorlashdir. Bu umumiy maqsad butun ta'lim tizimi va uning har bir bo'g'ini ishini yo'naltiradi. Maxsus maktab-internatlarining asosiy vazifasi – alohida yordamga muhtoj va boshqalar. Bolalarni mustaqil hayotga tayyorlash, bolaning bilish faoliyatidagi kamchiliklarini ko'rsatadi. Bartaraf etish, undagi barcha a'zolar funksiyalarini faol ravishda yaxshilash, ruhiy holati ko'rishimi mumkin. Jarayonlarni ijobiy tarkib toptirish, kamchiligi bor bolalarda Mustaqil Vatanimiz uchun eng zarur asosiy sifatlarni, barkamollikni hamda axloqiy odat va fazilatlarni shakllantirishdan iboratdir. Maktab internat ancha uzoq tumanlarda yashovchi ota-onalar uchun bolalarini o'qitish imkoniyatini taminlaydi. Shu o'rinda aytish lozimki eshitish nuqsonini bartaraf etishda asosan ijodiy faoliyat ayniqsa o'yinli metod samarali dars hisoblanadi bu dars jarayonining quyidagi sifatlari ko'rsatib o'tiladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni mustaqil faoliyatni tashkillashtirish analiz jarayoni orqali sintez jarayoni ham rivojlanish samaradorligiga erishish. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni ijtimoiylashuvining vajudga kelishi va moslashish jarayoni aniqligi yuzaga kelishi ko'zda tutiladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar mustaqil harakatlar orqali qarorlar qabul qilish hislatining paydo bo'lishi kuatiladi.

O'yin faoliyatini tashkil etishda samarasi tarbiyachi tamonidan har bir o'quvchining ishi, yakka xususiyatlarini inobatga olinishiga bog'liq. Undan tashqari bu jarayonda quyidagicha yondashuv muhim xususiyatlar hisoblanadi. O'quvchilarni



tayyor bilimlarni o'rgatishdan tashqari ularni mustaqil, ijodiy bilishga, atrof – muhit orqali muomala madaniyatiga o'rgatish, saqlangan nutq malakalarini oshirib borish o'z fikrini to'laqonli bayon etishga o'rgatish, jamiyatga integrasiya qilish maktab internatlarining vazifasidir. Zero mustaqil va ijodiy fikrlashga ega bo'lgan avlodgina O'zbekiston taraqqiyotiga munosib xizmat qiladigan shaxs bo'lib yetishadi.

Xulosa: Maxsus maktab-internatlarda faoliyat yurituvchi psixologlarning ishi oddiy ta'lim muassasalaridagi psixologlarga nisbatan ancha mas'uliyatli va murakkabdir. Chunki bu muassasalardagi bolalar nafaqat bilimga, balki kuchli emotsional qo'llab-quvvatlashga ham muhtoj. Shuning uchun psixologning asosiy vazifasi — bolaning nuqsoniga emas, uning imkoniyatiga e'tibor qaratib, shaxs sifatida rivojlanishi uchun psixologik sharoit yaratishdir. Bunda psixolog nafaqat diagnostika va korrektsiya olib boradi, balki pedagogik jamoa va ota-onalar bilan hamjihatlikda ishlaydi. Demak, maxsus ta'lim tizimida psixolog faqat mutaxassis emas, balki tarbiyachi, motivator, yo'lko'rsatuvchi va ruhiy tayanch sifatida namoyon bo'ladi. Shunday ekan, mazkur sohada ishlovchi psixologlarning mehnati alohida e'tibor va qadrlashga loyiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Po'latova P.M. va boshqalar. Maxsus pedagogika. T.: «Fan va Texnologiyalar», 2014
2. Нуркелдиева Д.А., Чичерина Я.Е. Илк, мактабгача ва мактаб Ёшидаги болаларни психологик, педагогик ва логопедия текшириш. Т.: Янги Аср авлоди, 2007.
3. <http://www.uzedu.uz> – Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги сайти.
4. World report on disability. World Bank. WHO; 2011: 261.